MULTIFOKAL ATEROSKLEROZDA INTRASEREBRAL TOMIRLARNING PATOMORFOLOGIK VA IMMUNOGISTOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI

Alauatdiinova Z.X.
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Ilmiy rahbar: t.f.n. Matrasulov R.S.
Konsultant: t.f.d., professor Nishanov D.A.

Kalit so‘zlar: multifokal ateroskleroz, intraserebral tomirlar, ishemik insult, patomorfologiya, immunogistokimyo, morfometriya, trombogenez.

Muammoning dolzarbligi

Muammoning dolzarbligi. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining 2023-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, serebrovaskulyar kasalliklar dunyo aholisi o‘limi tuzilmasida ikkinchi o‘rinni egallaydi, bunda multifokal ateroskleroz asoratlaridan kelib chiqadigan o‘lim ko‘rsatkichi umumiy o‘lim tuzilmasining 57,65 foizini tashkil etadi. 2020-yilgi BSST ma’lumotlariga asosan, ishemik insult natijasida vafot etganlarning yosh bo‘yicha taqsimotida 45–59 yosh toifasi 50,16 foiz bilan yetakchi o‘rinni egallaydi – aynan mehnatga layoqatli aholi qatlami bo‘lib, bu holat davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Rivojlangan davlatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa mamlakatlari) haftasiga 50–55 soatdan ortiq ishlaydigan kontingentda kasallanish yuqoriligi qayd etilgan bo‘lsa, rivojlanayotgan davlatlarda ham xuddi shu tendensiya 45–59 yoshli aholi orasida kuzatilmoqda, bu kasallikning “yoshara borishi”dan dalolat beradi. So‘nggi o‘n yillikda serebrovaskulyar kasalliklarning morfometrik va immunogistokimyoviy xususiyatlari, xususan davolashgacha va davolashdan keyingi davrlardagi yoshga va jinsga doir farqlar yetarlicha o‘rganilmagan, aniq diagnostik-prognostik mezonlar ishlab chiqilmagan. Bu esa O‘zbekistonda intrakranial tomirlarning patomorfologik va immunogistokimyoviy xususiyatlarini kompleks o‘rganishni, tekshirish usullarini takomillashtirishni dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylantiradi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi – multifokal aterosklerozda intraserebral tomirlarda yuzaga keladigan patomorfologik va immunogistokimyoviy o‘zgarishlarni davolashgacha va davolashdan keyingi davrlar kesimida o‘rganishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: quyonlarda modellashtirilgan multifokal aterosklerozda intrakranial tomirlarning patomorfologik o‘zgarishlarini o‘rganish; davolashdan keyingi davrda intrakranial tomirlarning patomorfologik, gistokimyoviy va immunogistokimyoviy xususiyatlarini tahlil qilish; multifokal ateroskleroz asoratlaridan vafot etgan bemorlar

autopsiya materiali asosida intrakranial tomirlarning yoshga va jinsga doir patomorfologik xususiyatlarini o‘rganish; davolashgacha va davolashdan keyingi davrlarda intrakranial tomirlarning multipleksli morfometrik ko‘rsatkichlarini baholash.

Material va tadqiqot usullari

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqot uchun material sifatida Respublika Patologik Anatomiya Markazida 2015–2025-yillar davomida serebrovaskulyar kasalliklar oqibatida vafot etgan 122 nafar bemorning autopsiya materialidan olingan bosh miya va miya ichi tomirlari to‘qimalari, shuningdek quyonlarda modellashtirilgan multifokal ateroskleroz materiali qo‘llaniladi. Morfologik tekshiruvlar gematoksilin-eozin bilan bo‘yash, gistokimyoviy usullardan Van Gizon va Masson bo‘yicha trixrom bo‘yash, hamda tegishli markerlar yordamida immunogistokimyoviy tekshiruvlar orqali amalga oshiriladi. Olingan ma’lumotlar variatsion statistika usullarida qayta ishlanadi.

Ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati

Ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Tadqiqot davomida intrakranial tomirlarning multifokal aterosklerozda davolashgacha va davolashdan keyingi davrlardagi jinsga va yoshga doir morfologik, morfometrik, gistokimyoviy hamda immunogistokimyoviy xususiyatlari birinchi marta kompleks tarzda o‘rganiladi, og‘ir asoratlarni erta prognozlash va trombogenez jarayonini baholashning yangi mezonlari ishlab chiqiladi. Olingan natijalar klinik-anamnestik va instrumental tekshiruv ma’lumotlari bilan taqqoslanadi, bu esa kasallikning klinik-morfologik xususiyatlarini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari asosida miya to‘qimasi va tomirlaridagi o‘zgarishlarni erta profilaktik tashxislash uchun aniq mezonlarga asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi va amaliyotga tatbiq etiladi, bu esa ishemik insultdan kelib chiqadigan o‘lim va nogironlik ko‘rsatkichlarini pasaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotni bajarish bosqichlari

Tadqiqotni bajarish bosqichlari. Tadqiqot bir necha bosqichda amalga oshiriladi: dastlabki bosqichda dissertatsiya mavzusi aniqlashtiriladi, annotatsiya va patent tadqiqoti tuziladi; ikkinchi bosqichda ilmiy adabiyotlar bilan tanishish, muammo bo‘yicha adabiyotlar sharhi va material yig‘ish amalga oshiriladi; uchinchi bosqichda autopsiya materialidan olingan xom arxiv materiallariga ishlov berilib, miya to‘qimasi va miya ichi qon tomirlari to‘qimalarining tavsiflari rasmiylashtiriladi; yakuniy bosqichda zamonaviy immunogistokimyoviy tekshiruv usullari qo‘llanilib, olingan natijalar asosida maqolalar chop etiladi va dissertatsiyaning boblari shakllantiriladi.

Xulosa

Xulosa. Multifokal aterosklerozda intraserebral tomirlarning patomorfologik va immunogistokimyoviy xususiyatlarini kompleks o‘rganish serebrovaskulyar kasalliklarning zamonaviy diagnostikasi va davolash samaradorligini oshirish, shuningdek ishemik insult asoratlarini erta bashorat qilish uchun ilmiy asoslangan mezonlar yaratishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, davlat sog‘liqni saqlash tizimidagi ijtimoiy-iqtisodiy yukni kamaytirishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arenillas, J. F. (2011). Intracranial atherosclerosis: Current concepts. *Stroke*, *42*(1_suppl_1), S20–S23. https://doi.org/10.1161/STROKEAHA.110.597278

2. Fan, J., Kitajima, S., Watanabe, T., Xu, J., Zhang, J., Liu, E., & Chen, Y. E. (2015). Rabbit models for the study of human atherosclerosis: From pathophysiological mechanisms to translational medicine. *Pharmacology & Therapeutics*, *146*, 104–119. https://doi.org/10.1016/j.pharmthera.2014.09.009

3. Feigin, V. L., Brainin, M., Norrving, B., Martins, S., Sacco, R. L., Hacke, W., ... & Mensah, G. A. (2022). World Stroke Organization (WSO): Global stroke fact sheet 2022. *International Journal of Stroke*, *17*(1), 18–29. https://doi.org/10.1177/17474930211065915

4. Qiao, Y., Zeiler, S. R., Mirbagheri, S., Leigh, R., Urrutia, V., Wityk, R., & Wasserman, B. A. (2014). Intracranial plaque enhancement in patients with cerebrovascular events on high-spatial-resolution MR images. *Radiology*, *271*(2), 534–542. https://doi.org/10.1148/radiol.13130438

5. Ritz, K., Denswil, N. P., Stam, O. C., van Lieshout, J. J., & Daemen, M. J. A. (2014). Cause and mechanisms of intracranial atherosclerosis. *Circulation*, *130*(16), 1407–1414. https://doi.org/10.1161/CIRCULATIONAHA.114.011147

6. Virmani, R., Kolodgie, F. D., Burke, A. P., Farb, A., & Schwartz, S. M. (2000). Lessons from sudden coronary death: A comprehensive morphological classification scheme for atherosclerotic lesions. *Arteriosclerosis, Thrombosis, and Vascular Biology*, *20*(5), 1262–1275. https://doi.org/10.1161/01.atv.20.5.1262